

Karimova Dilyora Raximjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: dilyoraxonkarimova07@gmail.com

Tel: +99890 2751797

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini qo'shiqlar
orqali shakllantirish lingvodidaktik muammo sifatida**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning lingvodidaktik muammolari hamda og'zaki nutqini rivojlantirish usullari haqida yoritilgan. Kichik yoshdagi bolalarning ingliz tilida, to'g'ri talaffuzini, ravon so'zlashish qobiliyatini shakllantirishda mavzulashtirilgan ingliz tilidagi bolalar qo'shiqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Lingvodidaktika, tillar ta'limshunosligi, yakzabonlik, fonologik tushuncha, til tovushlari, stress, lingvistik omil, effektiv omil.

Dilyora Raximjon qizi Karimova

Doctoral Candidate, Namangan State University

Email: dilyoraxonkarimova07@gmail.com

Phone: +99890 2751797

**Developing Primary School Pupils' Oral English Speech Through Songs
as a Linguodidactic Issue**

Abstract: This article highlights the linguodidactic challenges of teaching English to primary school students and methods for developing their oral speech. The use of themed English children's songs plays an important role in shaping young learners' correct pronunciation and fluent speaking skills.

Keywords: Linguodidactics, language pedagogy, monolingualism, phonological concept, language sounds, stress, linguistic factor, affective factor.

Каримова Дилёра Рахимжоновна

Соискатель степени доктора философии (PhD), Наманганский

государственный университет
Электронная почта: dilyoraxonkarimova07@gmail.com
Телефон: +99890 2751797

Формирование устной речи младших школьников на английском языке посредством песен как лингводидактическая проблема

Аннотация: В данной статье освещаются лингводидактические проблемы обучения английскому языку учеников начальных классов, а также методы развития их устной речи. Использование тематических детских песен на английском языке имеет важное значение в формировании правильного произношения и навыков беглой речи у детей младшего возраста.

Ключевые слова: Лингводидактика, языковое образование, монолингвизм, фонологическое понятие, звуки языка, ударение, лингвистический фактор, аффективный фактор.

Kirish

Bugungi kunda ingliz tilini erta bosqichdan o'rgatish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularning psixologik va yosh xususiyatlariga mos yondashuv muhimdir. Xususan, og'zaki nutqni shakllantirishda an'anaviy metodlardan tashqari, musiqiy materiallar, ayniqsa, qo'shiqlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Biroq bu uslubni to'g'ri tanlash va qo'llash ma'lum lingvodidaktik muammolarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda og'zaki nutqni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu boradagi metodik izlanishlar lingvodidaktika fanining asosiy yo'nalishlaridan biridir. J.Jalolov tomonidan ilgari surilgan "Tillar ta'limshunosligi" tushunchasi [5] bir tillilik, ikki tillilik va ko'p tillilik sharoitida til o'qitishning ilmiy asoslarini o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolalarning psixolingvistik rivojlanishiga mos, bosqichma-bosqich o'zlashtirishga asoslangan metodlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

S.Fillips va D.Griffe kabi xorijiy tadqiqotchilar esa kichik yoshdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda musiqa va qo'shiqlarning samarali vosita sifatidagi ahamiyatini ta'kidlab o'tadilar. Fillipsning fikricha, "Bolalar qo'shiqlari fonetik elementlar — tovushlar, stress intonatsiyani mashq qilishda yordam beradi." [2] D.Griffe esa qo'shiqlarning bolalarda qiziqish uyg'otish, e'tiborni jamlash va faol ishtirokni rag'batlantirishdagi rolini yoritadi. [3]

Mahalliy tadqiqotchilar orasida S.Saydaliyev lingvodidaktika fanining hozirgi holatini o'rganar ekan, til o'rgatish jarayonida effektiv va lingvistik omillar uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi [8]. N.G.Buriyeva o'z maqolasida qo'shiqlar orqali o'rgatish metodikasining zamonaviy texnikalarini taklif qiladi. [1]

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'shiqlardan foydalanish nafaqat fonetik ko'nikmalarni shakllantirish, balki kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ammo, bu uslubni qo'llashda tilga oid, psixologik va metodik yondashuvlar uyg'unligi zarur.

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda chet tilini o'rganish yoshlar o'rtasida global jarayon hisoblanadi. Bir nechta tillarni bilish orqali yoshlar dunyoning eng mashhur universitetlarida o'qish, nufuzli korxonalarda va tashkilotlarda ishlash imkoniyatlarini qo'lga kiritmoqdalar. Bu yoshlarning kelajagi kafolati bo'ib xizmat qiladi. Shu sababdan chet tili bolalarga kichik yoshdan o'qitish yo'lga qo'yildi va "Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;" [7] deya qonunan ham belgilab qo'yildi. Bunday qarorlarning qabul qilinishi chet tillarning yoshlar kelajagi hamda vatanimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tilni xoh ikkinchi til sifatida bo'lsin, xoh chet tili sifatida bo'lsin o'qitilishi lingvodidaktika bilan bog'liqdir. "Lingvodidaktika" atamasiga turli adabiyotlarda turlicha tariflar berib o'tilgan va hozirgi kunda ushbu so'zga "til

ta’limi” tarifi muqobil hisoblanadi. Ushbu “Lingvodidaktika” termini yunoncha “lingvo” hamda “didaktikos”so’zlaridan tashkil topgan bo’lib, “lingvo”-“til”, “didaktiko’s”-“o’rgatuvchi”, “ta’lim beruvchi” ma’nosini bildiradi[5]. Taniqli metodist J. Jalolov “Lingvodidaktika”ga quyidagi ta’rifni tavsiya etgan: “Tillar ta’limshunosligi” deganda yakzabonlik, ikki tillilik-zullisoniylik va ko’p tillilik-poliglossiyaning o’rgatishga doir ilmiy soha tushiniladi.”[5] Ushbu ta’rifga asoslanib Professor Saidumar Saydaliyev ham ustoz J.Jalolov fikrlariga qo’shimcha qilib o’tdi: “Ustoz J.Jalolovning fikriga suyanganda hozirgi zamon til o’rgatish ilmidagi ma’lumotlarni umumlashtirib, quyidagi ishchi ta’rifni tavsiya etish mumkin deb hisoblaymiz: “Tillar ta’limshunosligi” deganda bir tillilik, ikki tillilik va ko’p tilliliklarni o’rgatishga doir ilmiy soha tushiniladi.”[8] Bundan anglashimiz mumkinki, lingvodidaktika — bu tilshunoslikning amaliy shakli bo’lib, u chet tilni o’rgatish va o’zlashtirish jarayonlarini o’rganadi. Lingvodidaktika tillarni o’rganishning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi, shu bilan birga o’rganiladigan tilga mos ravishda didaktik maqsadlarga qarab o’qitish metodlari va vositalarini ishlab chiqadi, monolingvizm (bitta tilni bilish) yoki bilingvizm (ikki tilni bilish)ning tilni o’zlashtirishga ta’sirini o’rganadi.

Boshlang’ich sinflarda chet tilini o’qitish, yuqori sinflarga qaraganda farqliroqdir. Bilamizki, 5-9 sinflarda ingliz tilini o’rgatishda amaliy topshiriqlarga ko’proq e’tibor qaratiladi. Boshlang’ich sinflar esa bundan mustasno. Kichik yoshdagi o’quvchilarni til o’rgatish uchun darsni tabiiy va qiziqarli tashkillashtirish juda muhim. Bu borada bizga ingliz bolalar qo’shiqlari katta yordamchi bo’lishi mumkin. Ingliz tilida to’g’ri talaffuz qilish, urg’uni joyiga qo’yish, gaplarni mantiqan to’g’ri qurish – boshlang’ich sinf o’quvchisi uchun murakkab vazifa. Bu yerda bir nechta asosiy lingvodidaktik muammolarni ajratish mumkin:

- Fonetik to’siqlar: O’zbek tilida mavjud bo’lmagan tovushlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar (Masalan: ð, ə)
- Passiv eshituv: O’quvchi ko’pincha tinglaydi, ammo faollik bilan nutq so’zlay olmaydi.

- Nutqdan qoʻrquv: Notoʻgʻri aytaman deb nutqdan chetlashishga urinishadi.

Qoʻshiqlar orqali esa bolalarda uchraydigan ushbu muammolarni yengish va aynan ogʻzaki nutqlarini samarali rivojlantirish mumkin. Tadqiqotchi S.Fillipsning fikriga koʻra, “Bolalar qoʻshiqlari ingliz tilining tovushlari, qofiyalari va stress naqshlarini mashq qilish uchun oʻrgatiladi”[2]. Shu bilan birga Toni Stead “Bolalar qoʻshiqlarini baland ovoz bilan birgalikda kuylash mobaynida, bolalar eshitishlari orqali qoʻshiqdagi soʻzlar talaffuzi yodda qoladi. Undoshlar va unlilar soʻzda hosil boʻladi. Ular soʻzlarning balandligi va talaffuzini qayta-qayta eshita oladilar. Bu sevimli qoʻshiqlarning qayta-qayta takrorlanishini eshitib, ular fonologik tushunchaga ega boʻladilar” [2]deya taʼrif berdi . Eʼtibor beradigan boʻlsak haqiqatdan ham qoʻshiqlar bolalarga soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishga, urgʻuni oʻz oʻrnida qoʻllashga yordam beradi. Misol uchun bolalar uchun moʻljallangan “Old Macdonald” qoʻshigʻini olaylik, ushbu qoʻshiqni tinglash jarayonida bola birgalikda kuylashga urinadi va bir hil talaffuz qilishga harakat qiladi, buning uchun qoʻshiqni takror-takror eshitadi va soʻzlarni beixtiyor, zoʻriqishsiz yod oladi. Ularni yod olishiga toʻgʻridan-toʻgʻri yordam beruvchi yana bir omil qoʻshiqlarni tasvirlovchi videolar va qoʻshiq jarayonida bajariluvchi harakatlardir. Koʻrish yoki koʻrsatish orqali bolani ongida tasavvur paydo boʻladi. Maʼlumki bolalarda toʻrt xil qabul qilish uslubi mavjud. Bular koʻrish orqali eslab qolish, eshitish orqali eslab qolish, harakatlar orqali eslab qolish va tegish orqali eslab qolish. Bolaga ingliz tilidagi qoʻshiqlar orqali til oʻrgatish har toʻrtta usulni birga qoʻllash imkonini beradi. Bunga yana bir misol qilib taʼna aʼzolarini oʻrganishga moʻljallangan “This is me!” qoʻshigʻini olishimiz mumkin.

My head, my eyes, my nose

This is me,

My mouth, my ears, my chin

This is me.

My arms, my hands, my fingers

Count with me.

One, two, three, four, five, six, seven

Eight, nine, ten. [1]

Bu qo'shiqda bola eshitadi, ko'radi, harakatlar orqali bajaradi va teginib ko'rsatadi va ushbu so'zlar bolaning ongiga joylashadi. Bu jarayonni tadqiqotchi olimi Izabel Mariya quyidagicha tahlil qilgan, "Qo'shiqlarning foydalari ikkita asosiy omil: lingvistik omillar va effektiv omillar ostida umumlashtiriladi".

Ushbu texnologiya haqida Morpyning "Teaching one to one" kitobiga yozgan so'z boshida Alan Maley bir qator afzalliklari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tgan. Uning fikriga ko'ra "Musiqalar tez esda qolish xususiyatiga ega. Uning takrorlanuvchi so'zlari, qiziqarli ohanglari insonda eslab qolishga nisbatan motivatsiya uyg'otadi va natijada bunday qo'shiqlar kamdan kam holatda unutiladi." [6] Haqiqatdan ham qo'shiqlar insonda til o'rganishdagi nisbatan rangbaranglik beradi va o'quvchida qiziqish uyg'ota oladi. Agar qo'shiq so'zlari o'rganuvchi yoshiga va o'rganilayotgan mavzuga mos bo'lsa va musiqa janri munosib tanlangan bo'lsa u o'quvchini darsda e'tiborini to'liq tortadi va o'rganishni osonlashtiradi. Til o'rganishda to'liq samarali bo'lgan aniq bir uslub yo'q, lekin rangbaranglik bir hillikdan ko'ra samaraliroq hisoblanadi. Bu orqali bolani zeriktirmay, charchatmay darsni jonlantirish va yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Quyidagi metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'shiqlar orqali og'zaki nutqini rivojlantirishda juda samarali hisoblanadi:

- Repeat-after-me texnikasi: O'qituvchi biror jumlaning kuylab aytadi, o'quvchilar esa qaytaradi. Bu usul talaffuzni o'rgatishda juda foydali.
- Bo'g'inlab kuylash: Murakkab so'zlar bo'g'inlarga bo'linib aytiladi va keyin qo'shiq orqali birlashtiriladi.
- Qo'shiq asosida mini-dialoglar tuzish: Qo'shiqdagi frazalardan foydalanib oddiy dialoglar tuzish orqali o'quvchining so'zlashuv malakasi rivojlanadi.
- Harakatli qo'shiqlar: Ritmik harakatlar bilan kuylash orqali bola so'z ma'nosini anglaydi va uni eslab qoladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutqini shakllantirishda qo'shiqlardan foydalanish samarali va ta'sirchan metodlardan biri hisoblanadi. Qo'shiqlar bolalar e'tiborini tortadi, ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda so'z boyligini kengaytirishga, talaffuzini yaxshilashga xizmat qiladi. Musiqa vositasida berilgan til materiallari osonroq esda qoladi va til o'rganish jarayonini jonlantiradi. Biroq, bu uslubdan muvaffaqiyatli foydalanish uchun har bir qo'shiqni yoshga mos, didaktik maqsadlarga xizmat qiladigan tarzda tanlash muhimdir. Shuningdek, uni to'g'ri metodik ishlov berish zarur bo'lib, bu esa lingvodidaktik yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv asosida qo'shiqlarning ta'limiy, tarbiyaviy va estetik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mazmunli va yaxshi tanlangan qo'shiqlar yordamida o'quvchilarning chet tilida erkin so'zlasha olish malakasi sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bois, ingliz tilini o'qitishda qo'shiqlardan foydalanish innovatsion, samarali va dolzarb yondashuv sifatida muhim ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buriyeva N.G. Using songs and music in teaching English to young learners // Молодой ученый_ 2017
2. Fillips S. (1993) Young learners. Oxford. England: Oxford University Press.
3. Griffe, D. (1992) Songs in actions: Classroom techniques and resources. New York. Prentice Hall.
4. Ilmiddinovich, K. S. (2020). Methods Of Teaching English To Young Learners. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 65-69.
5. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 430 b.
6. Murphey, Tim. "Music & Song." Oxford: University Press, 1992

7. O'zbekiston Respublikasi VM qarori. "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida".- Toshkent sh.,2017-yil 11-avgust, 610-son. Lex.uz
8. 8. Saydaliyev S. Lingvodidaktika va tillar o'qitish metodikasi. // International scientific and practical conference. April-23-24. 2024. – B. 96-98.